

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilari, xotin-qizlar kengashi raislari, yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilar hamda matbuot kotiblari yig'ilishi bo'lib o'tdi

// 12.10.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalari-ma-naviy-ma-rifiy-ishla>



"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilari, xotin-qizlar kengashi raislari, yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilar hamda matbuot kotiblari yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Videokonferensaloqa tarzida o'tgan yig'ilishda "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi Sanobar Abdurahmanova korxonalarda ish jarayonlarining to'liq davlat tilida olib borilishi borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ishchi-xodimlar, yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, tasdiqlangan ish-rejaga asosan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'z vaqtida tashkil etish masalalariga alohida to'xtaldi.



Shuningdek, tizim korxonalaridagi mas'ullarga xotin-qizlar masalalari bilan alohida ishlash, ularning murojaatlari va muammolarini o'rganish va yechim taklif qilish, qolaversa, qo'llab-quvvatlash masalalari ham muhokama qilindi.



Shu bilan birga, yaqinlashib kelayotgan O'zbek tili bayramiga munosib tayyorgarlik ko'rish yuzasidan tizim korxonalari mas'ullariga tegishli ko'rsatmalar berildi.